O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 19 - yanvar 27-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi PQ-15-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Viloyatda elektrotexnika sanoatida yangi zaxira va imkoniyatlarni safarbar qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli elektrotexnika mahsulotlari, maishiy va boshqa texnikalar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish, shuningdek, sohaga zamonaviy texnologiyalar joriy etishni izchil davom ettirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi “2024-2027-yillarda elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-15-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi “2024-2027-yillarda elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-15-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

a) 2024-2025-yillar uchun elektrotexnika tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar:

mis xomashyosini qayta ishlash hajmini 2024-yilda 140 ming tonnaga va 2025-yilda 160 ming tonnaga yetkazish;

mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2024-yilda 30,8 trillion so‘mgacha va 2025-yilda 38 trillion so‘mgacha oshirish;

mahsulotlar eksporti hajmini 2024-yilda 1,5 milliard AQSH dollari va 2025-yilda 2 milliard AQSH dollari miqdorida ta’minlash belgilanganligi;

b) Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan elektrotexnika sanoatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun 2024-2026-yillarda tijorat banklariga, ularning buyurtmasiga asosan 3 yil imtiyozli davr bilan 10 yil muddatga, yillik 5 foiz stavkada 100 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ochilishi;

Bunda, kredit liniyasi hisobidan tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 3 yil imtiyozli davr bilan 10 yil muddatga yillik 7 foiz stavkada (shundan 2 foiz bank marjasi) kreditlar ajratilishi belgilanganligi;

d) 2024-2026-yillarda xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklardan tijorat banklariga elektrotexnika va elektromaishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 400 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyalarini jalb qilinishi;

e) Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga **2027-yil 1-yanvarga qadar** elektrotexnika sohasi korxonalarini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha choralar ko‘rish vakolati berilganligi;

Hukumat komissiyasi qarorlariga asosan elektrotexnika sohasi korxonalarini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari uchun zarur mablag‘lar ajratib borilishi;

f) **2024-yil 1-fevraldan boshlab** O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda ularning sifati, xavfsizligi hamda servis kafolatini ta’minlaydigan ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili yoki rasmiy dilerlari mavjud bo‘lishi talab qilinadigan mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlanganligi;

Bunda, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili va (yoki) rasmiy dilerlarning servis xizmati mavjud bo‘lishi kerakligi;

g) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining "O‘zeltexsanoat" uyushmasi ta’sischiligida tashkil etilgan "Eltech-Lab" MCHJda elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning texnik reglamentlar va xalqaro talablarga muvofiqligini (xavfsizlik ko‘rsatkichlari va energiya samaradorligini) baholash bo‘yicha zamonaviy sinov laboratoriyasi va sertifikatlashtirish markazini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

2024-yilda "O‘zeltexsanoat" uyushmasiga "Eltech-Lab" MCHJda sinov laboratoriyasini jihozlash uchun davlat byudjetidan bosqichma-bosqich 25 milliard

so‘m miqdorida mablag‘lar ajratilishi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga "O‘zeltexsanoat" uyushmasi bilan birgalikda:

2024-yil 1-dekabrga qadar elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning texnik reglamentlar va xalqaro talablarga muvofiqligini (xavfsizlik ko‘rsatkichlari va energiya samaradorligini) baholash bo‘yicha zamonaviy sinov laboratoriyasi va sertifikatlashtirish markazini tashkil etish ishlarini yakunlash;

2024-yil 1-martga qadar sinov laboratoriyasi faoliyatini xalqaro me’yorlar asosida rivojlantirish va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishni inobatga olgan holda, uni akkreditatsiyadan o‘tkazish choralarini ko‘rish;

g‘) Energetika vazirligiga **2024-yil 1-iyunga qadar** O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda "O‘zeltexsanoat" uyushmasi bilan birgalikda energetika tizimidagi transformator nimstansiyalari va transformatorlarga, kabel-sim mahsulotlariga hamda quyosh fotoelektr stansiyalariga nisbatan yagona texnik talablarni tasdiqlash;

h) Bosh vazir o‘rinbosari (J.Xodjayev)ga Energetika vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** energetika sohasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi davlat xaridlarida mahalliy elektrotexnika mahsulotlari xarid qilinishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini Jahon savdo tashkiloti talablariga mos ravishda ishlab chiqsin hamda amaliyotda qo‘llash choralarini ko‘rish;

i) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga **2024-yil 1-martga qadar** ichki bozorda elektrotexnika sanoati mahsulotlari narxi keskin o‘zgarishining oldini olish va ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar yuzasidan takliflarni;

uch oy muddatda elektrotexnika mahsulotlari iste’molchilariga sifatli va kafolatli servis xizmatlari amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida servis xizmatlarini tartibga solish mexanizmini xalqaro standartlar asosida texnik xizmat ko‘rsatish markazlarining bino-inshootlari, texnik vositalari, asbob-uskunalari hamda tegishli malaka sertifikatiga ega bo‘lgan xodimlariga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqqan holda tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifalari yuklatilganligi;

j) "O‘zeltexsanoat" uyushmasi huzurida loyihalash ishlarini amalga

oshiradigan Loyihalash va injiniring markazi - "Eltexenergoloyiha" mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Elektrotexnika sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish dasturi doirasida Farg‘ona viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini ishga tushirishning yig‘ma parametrlari
1-ilovaga, investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxati **1a-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Viloyat hokimi o‘rinbosari N.Mamajonovga shahar, tuman hokimlari bilan birgalikda mazkur dasturda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. Viloyatda elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalariga ko‘maklashish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda sohada mavjud muammolarni doimiy bartaraf etib borish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi **2-ilova**ga asosan tasdiqlansin.

Ishchi guruhning vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

hududlarda elektrotexnika sanoati yo‘nalishida ishlab chiqarishni kengaytirishga ko‘maklashish;

yangi investitsiya loyihalarini shakllantirishda tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish, xorijiy investorlarni jalb qilish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

elektrotexnika yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining eksport bozorlarga chiqishiga ko‘maklashish;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **har oy yakuni bilan** viloyat hokimiga hisobot kiritish.

Viloyat hokimi o‘rinbosari N.Mamajonov Ishchi guruh tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot shaklidagi ma’lumotlarni **har chorak yakuni bilan** Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin.

5. Quyidagilar:

a) 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar muddatga hisobot davri yakunlari bo‘yicha elektrotexnika mahsulotlarini sotishdan tushgan tushumi miqdori umumiy tushumining 80 foizidan kam bo‘lmagan elektrotexnika tarmog‘i

korxonalariga foyda solig‘i va mol-mulk solig‘i bo‘yicha stavkalarni 50 foizga kamaytirish tarzida soliq imtiyozlari berilishi;

Ushbu bandda nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining berilishi munosabati bilan bo‘shagan mablag‘lar:

korxonalar tomonidan dividendlar ko‘rinishida taqsimlanmasligi;

yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilishga yo‘naltirilishi;

b) 2024-yil 1-apreldan boshlab davlat xaridlari doirasida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etganda ularga nisbatan import tovarlarining DDP (O‘zbekiston) narxidan quyidagi:

uchta va undan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda o‘n besh foiz;

ikkita mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan takdirda o‘n ikki foiz;

bitta mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda sakkiz foiz mikdorida narx preferensiyalari berilishi;

d) davlat buyurtmachilari elektrotexnika (TIF TN kodi 84 va 85 guruhi) mahsulotlari xaridini amalga oshirishda elektron kooperatsiya portalidan ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning takliflarini o‘rganish choralarini ko‘rilishi;

2024-yil 1-fevraldan boshlab elektrotexnika sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xomashyo va butlovchi qismlarni import qilishda, shu jumladan 120 kun kechiktirib to‘lashda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olish imkoniyatini beruvchi tizimda bir vaqtning o‘zida istalgan mikdorda bojxona yuk deklaratsiyasini yuborish, import bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini birinchi navbatda soliq organlaridagi hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisobidan undirish, so‘ngra yetmagan qismi bo‘yicha undiruvni bojxona depozitidagi mablag‘larga qaratish tartibi joriy etilganligi;

sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar "O‘zeltexsanoat" uyushmasiga a’zoligidan qat’iy nazar mazkur uyushma tavsiyasi asosida vakolatli iqtisodiy operatorlar reestriga kiritilishi;

majburiy raqamli markirovka qilinishi belgilangan maishiy texnika mahsulotlarini ro‘yxatga olish, muvofiqlik sertifikati berish va muvofiqlik

deklaratsiyasini ro‘yxatga olish qat’iy ravishda tegishli markirovka kodi olinganidan so‘ng amalga oshirilishi;

mahalliy ishlab chiqarilgan elektrotexnika mahsulotlari xaridini amalga oshirish bo‘yicha Milliy sanoat portalida alohida sahifa yaratilishi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan majburiy ko‘rsatkichlarni aniqlashni ta’minlaydigan, belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o‘tkazilgan sinov laboratoriyasi mavjud bo‘lmagan sertifikatlashtirish organlari tomonidan elektrotexnika mahsulotlariga muvofiqlik sertifikatlarini berish taqiqlanganligi e’tiborga olinsin.

6. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Farg‘ona viloyati hokimligi va "O‘zeltexsanoat" uyushmasining:

yangi turdagi yuqori texnologiyaga asoslangan elektrotexnika mahsulotlari va ularning butlovchi qismlarini o‘zlashtirish maqsadida, "Ohangaron Tech Industrial" texnoparki negizida **"Eltech Industrial"** texnoparkini (keyingi o‘rinlarda -texnopark) tashkil etish;

"Ohangaron Tech Industrial" texnoparkini boshqarish direksiyasi davlat unitar korxonasini **"Eltech Industrial"** texnoparkini boshqarish direksiyasi davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda — Direksiya) sifatida qayta tashkil etish;

Direksiyaga doimiy foydalanish huquqi asosida qo‘shimcha 214 gektar yer uchastkalarini ajratish orqali texnopark hududini kengaytirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Viloyat hokimi o‘rinbosarlari X.Isakov, N.Mamajonovlar ikki hafta muddatda Farg‘ona shahri "Eko shahar" hududidan 10 gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini Direksiyaga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish choralarini ko‘rsin.

8. Texnoparkni tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash ishlari (yetkazib berish, ko‘chirish hamda zarur infratuzilmani yaratish) 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida:

a) maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini va investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash uchun ajratilgan mablag‘lar hisobiga:

tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq ichimlik suv, oqova suv tarmoqlarini "O‘zsuvta’minot" AJ tarkibidagi tashkilotlar hamda avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi buyurtmachiligida;

elektr energiyasi va tabiiy gaz tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq "O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududgazta’minot" AJ tarkibidagi tashkilotlar buyurtmachiligida;

b) aloqa tarmoqlarini qurish, ko‘chirish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari "O‘zbektelekom" AK buyurtmachiligida o‘z mablag‘lari hisobidan;

d) irrigatsiya va ochiq kollektorlarni yopiq tarmoqqa o‘tkazish yoki ko‘chirish ishlari Suv xo‘jaligi vazirligi obyektlarini qurish-ta’mirlash uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul etib viloyat hokimi o‘rinbosari N.Mamajonov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 19-yanvardagi
27-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Elektrotexnika sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish dasturi doirasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini ishga tushirishning YIG‘MA PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	Loyiha soni	shu jumladan ishga tushadigan:				Loyihalar qiymati *(ming doll)*	shu jumladan ishga tushadiganlar:				ish o‘rinlari (birlik)	shu jumladan ishga tushadiganlar bo‘yicha:			
			2024-yilda	2025-yilda	2026-yilda	Istiq-bolli		2024-yilda	2025-yilda	2026-yilda	istiq-bolli		2024-yilda	2025-yilda	2026-yilda	istiq-bolli
Farg‘ona viloyati		**31**	**8**	**14**	**4**	**5**	**570 361**	**71 000**	**63 961**	**45 400**	**390 000**	**2 511**	**405**	**606**	**400**	**1 100**
1	Buvayda tumani	2		2					3 471					50		
2	Dang‘ara tumani	4	1	3				1 200	3 688				15	31		
3	Quvasoy shahar	2		2					19 734					75		
4	Qo‘qon shahar	3	2	1				1 550	5 000				60	10		
5	Marg‘ilon shahar	1	1					200					20			
6	Toshloq tumani	3	1	1		1		15 000	7 062		100 000		80	80		150
7	Uchko‘prik tumani	10	2	4	2	2		3 050	20 006	14 100	165 000		130	260	330	600
8	Farg‘ona shahar	5	1	1	2	1		50 000	5 000	31 300	80 000		100	100	70	300
9	Furqat tumani	1				1					45 000					50

Izoh: Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasi zarur hollarda "O‘zeltexsanoat" uyushmasining taklifiga asosan ushbu yig‘ma parametrlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi berilgan.

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 19-yanvardagi
27-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatida elektrotexnika sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish

va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish loyihalarining

MANZILLI RO‘YXATI

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Loyiha nomi	Loyiha tashabbuskori	Loyiha quvvati	Loyiha quvvati hajmi *(mln.so‘m)*	Loyiha qiymati *(ming doll.)*	shundan:			Ish o‘rni *(birlik)*	Xizmat ko‘rsatuvchi bank	Ishga tushish muddati
							o‘z mablai	bank krediti	xorijiy investi-siya va kredit-lar			
	Jami (31 ta loyiha):			x		**570 361**	**152 976**	**19 285**	**398 100**	**2 511**		x
	2024-yilda ishga tushiriladigan loyihalar (8 ta loyiha)			x	**168 350**	**71 000**	**25 950**	**15 050**	**30 000**	**405**		x
1	Farg‘ona shahar	Elektromobil ishlab chiqarish 1- bosqich	"Central Asia Motors Co" UK	10 ming dona	62 000	50 000	5 000	15 000	30 000	100	Sanoat qurilish bank	2024-yil dekabr
2	Qo‘qon shahar	Vitrina xolodilnik ishlab chiqarish	"Guzar Qo‘qon vitrinalari" MCHJ	850 dona	3 500	350	350			30	Maxalliy xokimiyat	2024-yil avgust
3	Marg‘ilon shahar	Transformator ishlab chiqarish	"Marg‘ilon Elektr Savdo" xususiy korxonasi	150 dona	4 600	200	150	50		20	Milliy bank	2024-yil dekabr
4	Qo‘qon shahar	Kabel maxsulotlari ishlab chiqarish	"FURQAT ASL TA‘M" MCHJ	1,2 ming tonna	7 500	1 200	1 200			30	Maxalliy xokimiyat	2024-yil dekabr
5	Uchko‘prik tumani	Skuter ishlab chiqarish	"SUPER COLOR EXTRA" MCHJ	5000 dona	20 000	2 050	2 050			20	Xalq bank	2024-yil dekabr
6	Uchko‘prik tumani	Kabel mahsulotlari ishlab chiqarish	"Best Design Wire and Cable" MCHJ	2850 tonna	56 000	1 000	1 000			110	Kapital bank	2024-yil oktyabr
7	Dang‘ara tumani	Kabel maxsulotlari ishlab chiqarish	"Real Kabel Invest" MCHJ	3500 tonna	4 750	1 200	1 200			15	Milliy bank	2024-yil dekabr
8	Toshloq tumani	Kabel maxsulotlari ishlab chiqarish	"FER KABEL" MCHJ	2,5 mln metr	10 000	15 000	15 000			80	O‘zsanoat-qurilish bank	2024-yil oktyabr
	2025-2026-yillarda amalga oshiriladigan loyihalar (18 ta loyiha)			x	**1 154 452**	**109 361**	**38 026**	**4 235**	**67 100**	**1 006**	x	x
9	Toshloq tumani	PVX (polivinilxlorid – kabel usti qoplamasi) ishlab chiqarish	"FER KABEL" MCHJ	50 tonna	12 000	7 062	7 062			80	O‘zsanoat-qurilish bank	2025-yil noyabr
10	Dang‘ara tumani	Kabel maxsulotlari ishlab chiqarish	"ELEGANT KABLE 777" MCHJ	2100 tonna	2 880	785	549	235		20	Xalq bank	2025-yil oktyabr
11	Dang‘ara tumani	Elektir choynaklar va gaz plitalar ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish	"DANGARA KITCHEN EQUIPMENTS" MCHJ	60 ming dona	3 000	1 177	1 177			5	Kapital bank	2025-yil dekabr
12	Dang‘ara tumani	Elektir choynaklar va gaz plitalar ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish	"ELEGANCE MEDIA INVEST" MCHJ	85 ming dona	4 250	1 726	1 726			6	Agrobank	2025-yil dekabr
13	Uchko‘prik tumani	Velosiped, skuterlar va elektromotoroller ishlab chiqarish	“ISHONCHLI KELAJAK” MCHJ	10000 dona	147 400	1 868	1 868			80	Aloqabank	2025-yil dekabr
14	Uchko‘prik tumani	Eletroskuter ishlab chiqarish	"Spring Plast" MCHJ	3000 dona	176 300	596	596			100	Kapital bank	2025-yil aprel
15	Uchko‘prik tumani	Televizorlar, changyutgich, kir yuvish mashinasi, konditsioner va gaz plitalari ishlab chiqarishni kengaytirish	“Rosso Smart Electronics” MCHJ	3500 dona	81 900	2 542	2 542			30	Kapital bank	2025-yil dekabr
16	Uchko‘prik tumani	Quyosh panellari ishlab chiqarish	“Quruvchi Plast Biznes” MCHJ	30 ming dona	36 200	3 100	1 000		2 100	80	Ipoteka bank	2026-yil noyabr
17	Quvasoy shahar	Quyosh panellari, yoritish uskunalari, batareya va akkumulyatorlar ishlab chiqarish	"BLUE CARBON" MCHJ	250 ming.dona	3 500	9 796	4 796		5 000	40	Universal bank	2025-yil dekabr
18	Quvasoy shahar	Kommunal sohasida foydalaniladigan xisoblagichlar ishlab chiqaarish	"HAMKOR-SHINY" MCHJ	100 ming.dona	2 350	9 938	1 938		8 000	35	Hamkorbank	2025-yil dekabr

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Loyiha nomi	Loyiha tashabbuskori	Loyiha quvvati	Loyiha quvvati hajmi *(mln.so'm)*	Loyiha qiymati *(ming doll.)*	shundan:			Ish o'rni *(birlik)*	Xizmat ko'rsatuvchi bank	Ishga tushish muddati
19	Farg'ona shahar	GM va boshka turdagi yengil avtomobillarga elektro matorchalar ishlab chiqarish	"FER JK MOTORS" MCHJ QK	5 ming dona	6 200	5 000			5 000	100	Trasbank	2025-yil aprel
20	Farg'ona shahar	Elektrotexnika (planshet) mahsulotlari ishlab chiqarish	"ONE CLOUD SMART TECH" MCHJ XK	50 ming dona	31 000	25 000	10 000		15 000	20	O'zsanoat-qurilish bank	2026-yil dekabr
21	Farg'ona shahar	Misni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish	"TOSHLOQ SAMO BIZNES" MCHJ QK	10 ming tonna	7 812	6 300	3 300	3 000		50	Asakabank	2026-yil dekabr
22	Qo'qon shahar	Quyosh panellari uchun aksessuarlar (akkumlyator) ishlab chiqarish	"My seven Technology" MCHJ	9000 dona	31 860	5 000			5 000	10	Asaka bank	2025-yil aprel
23	Buvayda tumani	Yuqori kuchlanishli elektr kabellar ishlab chiqarishni kengaytirish	"WIRE CABLE SISTEM GROUP" X/K	13 ming.km	18 000	2 471	1 471	1 000		30	Mikrokre-dit bank	2025-yil dekabr
24	Buvayda tumani	Yuqori kuchlanishli elektr kabellar ishlab chiqarish	"Bayanduryan Garik Vanikovich" (Rossiya)	7 ming.km	7 000	1 000			1 000	20		2025-yil noyabr
25	Uchko'prik tumani	Motorol va elektromotorol ishlab chiqarish	"ALP MOTORS N1" MCHJ Q/K	12000 dona	208 600	15 000			15 000	50	Kapital bank	2025-yil aprel
26	Uchko'prik tumani	Turli xajmdagi elektroskuterlar uchun akumlyaturlar ishlab chiqarish	"Hong Gang International" MCHJ	15000 dona	374 200	11 000			11 000	250	O'zsanoat-qurilish bank	2026-yil dekabr
	Istiqbolli loyiha takliflari (5 ta loyiha)			x	**656 400**	**390 000**	**89 000**		**301 000**	**1 100**		x
27	Farg'ona shahar	1200 km yuradigan SUV (jip) gibrid va elektro mobillar ishlab chiqarish	"CENTRAL ASIA MOTORS CO" UK	2000 ming dona	99 200	80 000	10 000		70 000	300	O'zsanoat-qurilish bank	2027-yil
28	Uchko'prik tumani	Mis sim, quvur va katenka (1-bosqich) folgalarini ishlab chiqarish (2-bosqich)	"MB-QO'QON 7 " MCHJ	25 ming tonna	83 000	150 000	75 000		75 000	600	O'zsanoat-qurilish bank	2028-yil
29	Furqat tumani	Quvvati 1 gVt quyosh panellari ishlab chiqarish loyihasi	"VICTORIYA SAIWEI LDK SOLAR ENERGY" MCHJ QK	1 gVt	100 000	45 000			45 000	50	Mahalliy hokimlik	2027-yil
30	Toshloq tumani	Elektrobuslarni yig'ish, 5 bosqichdagi ishlab chiqarishni tashkil etish	"DONGFENG CENTRAL ASIA TECHNOLOGY CO LTD" MCHJ QK	5 ming dona		100 000			100 000	150	Mahalliy hokimlik	2028-yil
31	Uchko'prik tumani	Elektroskuterlar uchun akkumulyator ishlab chiqarishni tashkil etish	"Hong Gang International" MChJ XK	15 ming dona	374 200	15 000	4 000		11 000		O'zsanoat-qurilish bank	2027-yil

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 19-yanvardagi
27-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Viloyatda elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalariga ko‘maklashish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda sohada mavjud muammolarni doimiy bartaraf etib borish bo‘yicha ishchi guruhi

TARKIBI

T/r	Ismi va sharifi		Lavozimi
1.	X.Bozarov	-	Viloyat hokimi, *ishchi guruhi rahbari*
2.	N.Mamajonov	-	Viloyat hokimining o‘rinbosari, *ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari*
3.	A.Pulatov	-	Viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi, *ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari*
4.	Sh.Do‘saliyev	-	Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasi boshlig‘i
5.	M.Mamatxonov	-	Soliq boshqarmasi boshlig‘i
6.	A.Xolmatov	-	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish hududiy boshqarmasi boshlig‘i
7.	I.Azimov	-	Bojxona boshqarmasi boshlig‘i
8.	A.Yuldashev	-	Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i
9.	Sh.Mamadaliyev	-	Statistika boshqarmasi boshlig‘i
10.	A.Ro‘ziyev	-	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
11.	B.Tashtemirov	-	Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
12.	C.Niyozov	-	Texnik jixatdan tartibga solishni muvofiqlashtirish departamentining hududiy bo‘limi
13.	X.Xabibiddinov	-	Kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari direksiyasi rahbari
14.	F.Raxmonov	-	“Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi rahbari
15.	*Lavozimiga ko‘ra*	-	Tijorat banklari rahbarlari

Izoh. Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.